



_____ *hokimligi*
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ *maktabgacha va*
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___ *-umumiy o'rta ta'lim maktabi*
tarbiya fani o'qituvchisi

_____ *ning*
20__-20__-o'quv yili yuqori sinflarga
iqtidorli o'quvchilar uchun

“TARBIYA O'GITLARI” NOMLI

TO'GARAK
HUJJATLARI

To'garak a'zolari haqida ma'lumot

<i>Nº</i>	Familiya ismi va sharifi	Tug'ilgan sanasi	Sinfi	Manzili (to'liq)	Ota-onasi (Ismi sharifi)	Telefon (uy yoki mobil)	Izoh
<i>1.</i>							
<i>2.</i>							
<i>3.</i>							
<i>4.</i>							
<i>5.</i>							
<i>6.</i>							
<i>7.</i>							
<i>8.</i>							
<i>9.</i>							
<i>10.</i>							
<i>11.</i>							
<i>12.</i>							
<i>13.</i>							
<i>14.</i>							

15.							
16.							
17.							
18.							
19.							
20.							
21.							
22.							
23.							
24.							
25.							
26.							
27.							
28.							
29.							
30.							

O'tkazilgan xona _____

20__-20__-o‘quv yili uchun tarbiya fanidan “Tarbiya o‘g‘itlari” nomli to‘garagining
ISH REJASI

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Nazariy soat	Mashg‘ulot o‘tkazish muddati	Mashg‘ulot o‘tkazilgan sana
1	Inson – ezgulik ijodkori	1		
2	Oliy maqsadlar bilan yashash	1		
3	Umr-umid-sinov-imkoniyat	1		
4	Inson axloqi bilan go‘zal	1		
5	Inson odobida aks etuvchi fe‘l-atvor	1		
6	Baxtiyor hayotning ustunlari	1		
7	Hammasi o‘z qo‘limizda	1		
8	Inson umri	1		
9	«Men qanday insonman?»	1		
10	Muomala uchun zarur odoblar	1		
11	Samarali muloqot sirlari	1		
12	Avval tinglashni o‘rganing	1		
13	Yaxshilik yo‘lida hamkorlik	1		
14	Do‘stlik	1		
15	Insoniylik – xalqimizning eng buyuk fazilati	1		
16	Mahallamiz farovonligi – bizning farovonligimiz	1		
17	Iftixorimsan – jannatmakon o‘zbekiston!	1		
18	Har bir farzand vatan himoyachisi	1		
19	Hayot – betakror ne‘mat	1		
20	Fan–texnika taraqqiyoti va inson ma’naviyati	1		
21	Ilm va zakovat	1		
22	Til bilgan – dunyo ko‘radi	1		
23	Vaqt – bebaho ne‘mat	1		
24	Go‘zal tarbiya tamoyillari	1		
25	Xotira – buyuk qadriyat	1		
26	Yashamoq – o‘zidan yaxshi nom qoldirmoq	1		
27	Faol o‘quvchidan faol fuqarolikkacha	1		
28	Baxtiyorlik – umrning bosh maqsadi	1		
29	Buyuklarni aziz qilgan – bilim	1		
30	Bizning kuchli va kuchsiz tomonlarimiz	1		
31	Muvaffaqiyat – qimmatli tajriba mevasi	1		
32	Muloqot va ijtimoiy ko‘nikmalar	1		
33	Tadbirkorlik mezonlari	1		
34	Insonni boy va qashshoq qiluvchi omillar	1		

MMIBDO‘: _____

To‘garak rahbari: _____

Sana: “__” _____ 20__-yil. Sinflar: _____. To‘garak rahbari: _____

Mavzu: INSON – EZGULIK IJODKORI

Maqsad: Ta’limiy: O‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish. Yuksak insoniy fazilatlar mohiyatini anglatish, ularga ongli munosabatda bo‘lish, hamma millat vakillariga yaxshi munosabatda bo‘lish bilimni shakllantirish

TK2: axborot manbalari (televizor, telefon) dan to‘g‘ri foydalana olish

FK1 suhbatdoshni tinglash, sukut saqlash va o‘z fikrini to‘g‘ri bayon qilish ;

Tarbiyaviy: Odob-inson ko‘rki va ma’naviy boyligi ekanligini va mutafakkir ma’rifatparvarlar asarlaridagi hikmat, rivoyat va o‘g‘itlarini, milliy sharqona odob-axloq qoidalari, fazilatlarini, o‘zbekona urf-odat va an‘analarining milliy xususiyatlarni farqlash va amalga oshirish usullarini o‘rgatish.

TK4: Davlat ramzlariga hurmat va ehtirom ko‘rsatish;

Rivojlantiruvchi: O‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish, matn bilan ishlash orqali fikrlash qobiliyatlarini, og‘zaki nutqini o‘stirish.

FK1: O‘zbekistonda yashayotgan millatlar va elatlar haqida ma’lumot bera olish

Mashg‘ulot turi: Yangi bilim beruvchi

Mashg‘ulot usuli: Suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

Mashg‘ulot jihozi: Mashg‘ulotlik, taxta, bo‘r, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Mashg‘ulotning borishi.

I. Tashkiliyqism: Salomlashish, navbatchi axboroti, sinf va o‘quvchilarning mashg‘ulotga tayyorgarligi tekshiriladi, o‘quvchilar ehtiyojlari aniq qilinadi.

II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash. O‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi.

O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mavzuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

1. Inson nima uchun uyini sog‘inadi? «Zumrad va Qimmat» ertagi esingizdami? Zumrad nima uchun tomga chiqqanida yig‘laydi?

2. O‘zbekistonning qaysi hududlariga sayohat qilgansiz? Taassurotlaringiz bilan o‘rtoqlashing.

III. Yangi mavzu bayoni.

Sayohatga chiqish – yaxshi, uyga qaytish – yoqimli! Sayohat oldidan o‘zingizni uydan zerikkandek his qilsangiz ham, uyga qaytishning zavqi o‘zgacha. Vatanga qaytishning gashti ham xuddi shunday. Sayohat qiling, dunyo ko‘ring, o‘qib-o‘rganing va bir kuni, albatta, Vatanga qayting. Unutmang – siz uning aziz bir bo‘lagisiz.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasini o‘qing va quyidagi savollarga javob bering:

1. Ushbu moddada qanday majburiyatlar bayon qilingan?

2. Nima deb o‘ylaysiz, nega fuqarolar tarixiy, ma’naviy va madaniy merosni avaylab-asrashi shart?

3. Men ... majburiyatlarni bajaraman. Mening bu ... juda muhimdir.



VATANDIN YAXSHI YOR BO‘LMAS...

Bir yumush bilan Nyu-Jersi shahriga yo‘lim tushdi. Yonimdagi o‘rindiqlikda o‘tirgan o‘rta yoshli bir kishining men tomonga qarab turganini sezib, beixtiyor o‘girildim. Nigohimiz to‘qnashdi.

– O‘zbekistondanmisiz? – menga yuzlandi mayin tabassum bilan.

– O‘zbekistondanman, – deya o‘rnimdan turib, u kishining oldiga bordim. Salomlashdik. So‘rashdik.

Suhbatdoshim ismi Bahodir, ota-bobosi asli an dijonlik ekanligini aytdi. U Amerikada tug‘ilib, o‘sib, otabuvalaridan me ros kasb –ekan.

– Otam Andijonning odam lari, bog‘-rog‘lari va Bog‘isha mol haqida ko‘p gapirganlar. Har safar eslaganlarida O‘z be kistonga, albatta, bir kun borishlariga i shonar edilar. O‘z bekiston musta qillikka erishgach, yo‘llar ochildi. Vatandagi yaqinlarimiz bilan topishdik, diydor ko‘rishdik. Oxirgi yillarda ular besh marta Andijonga bordilar. Har safar: «Vatanimda ko‘z yumush nasib etsin», deb duoga qo‘l ochar edilar. Otamning duolari ijobat bo‘lib, Vatanda vafot etdilar.

– Otangizning joylari jannatda bo‘lsin, – dedim ko‘zlarim yoshlanib.

Nosir Zohid, yozuvchi

VATAN TUYG‘USI

Biz turkistonliklar o‘z vatanimizni jonimizdan ortiq suyganimiz kabi, arablar arabistonlarini, qumlik, issiq cho‘llarini, eskimular shimol tarafarini, eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o‘z vatanlarin tashlab ketmas edi.

Bobolarimiz: «Kishi yurtida sulton bo‘lguncha, o‘z yurtida cho‘pon bo‘l», – demishlar.

Abdulla Avloniy



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash. O‘tilgan mavzu mustahkamlanadi

1. Vatan sog‘inchini qanday tasavvur qilasiz? Nega bu sog‘inch musofrni qiynaydi?
2. «Kishi yurtida sulton bo‘lguncha, o‘z yurtida cho‘pon bo‘l» – deganda nima nazarda tutilgan?
3. Siz uyingizdan uzoqda bo‘lsangiz nimalarni sog‘inasiz?

V. O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Mashg‘ulotni yakunlash.

O‘quvchilar mashg‘ulotdagi ishtirokiga ko‘ra baholanadi. Rag‘bat kartochkalari orqali baholanadi. Guruhlar ham umumiy rag‘batlantirilib boriladi.

VI. Uyga vazifa Uyga vazifa bugungi mavzuni o‘qib kelish, qayta hikoyalashga tayyorlanish, xulasa chiqarish.

1. «Ma’naviyat xazinasidan» ruknida berilgan hikmatni hayotiy misollar bilan izohlang.
2. Abdulla Avloniyning Vatan tuyg‘usi haqidagi fikrlarini davom ettirishga harakat qiling.
3. «Men nechun sevaman O‘zbekistonni...» mavzusida loyiha tayyorlang. Vatan haqidagi filmlar, badiiy asar va rasmlardan foydalaning.
4. Mustaqil ravishda quyidagi topshiriqlarni bajaring:
 - Zahiriddin Muhammad Boburning Vatan sog‘inchi haqidagi o‘y-fikrlarini «Vatandin yaxshi yor bo‘lmas...» hikoyasining asosiy g‘oyasi bilan bog‘lang.
 - Boburning shu mazmundagi g‘azal va ruboiylaridan namunalar toping va daftaringizga yozing.

Maktab MMIBDO‘ _____ sana _____ 20__yil

Sana: “__” _____ 20__ -yil. Sinflar: _____. To‘garak rahbari: _____

Mavzu: Oliy maqsadlar bilan yashash

Maqsad: Ta’limiy: O‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish. Yuksak insoniy fazilatlar mohiyatini anglatish, ularga ongli munosabatda bo‘lish, hamma millat vakillariga yaxshi munosabatda bo‘lish bilimini shakllantirish

TK2: axborot manbalari (televizor, telefon) dan to‘g‘ri foydalana olish

FK1 suhbatdoshni tinglash, sukut saqlash va o‘z fikrini to‘g‘ri bayon qilish ;

Tarbiyaviy: Odob-inson ko‘rki va ma’naviy boyligi ekanligini va mutafakkir ma’rifatparvarlar asarlaridagi hikmat, rivoyat va o‘g‘itlarini, milliy sharqona odob-axloq qoidalari, fazilatlarini, o‘zbekona urf-odat va an‘analarining milliy xususiyatlarni farqlash va amalga oshirish usullarini o‘rgatish.

TK4: Davlat ramzlariga hurmat va ehtirom ko‘rsatish;

Rivojlantiruvchi: O‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish, matn bilan ishlash orqali fikrlash qobiliyatlarini, og‘zaki nutqini o‘stirish.

FK1: O‘zbekistonda yashayotgan millatlar va elatlar haqida ma’lumot bera olish

Mashg‘ulot turi: Yangi bilim beruvchi

Mashg‘ulot usuli: Suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

Mashg‘ulot jihozi: Mashg‘ulotlik, taxta, bo‘r, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Mashg‘ulotning borishi.

I. Tashkiliy qism: Salomlashish, navbatchi axboroti, sinf va o‘quvchilarning mashg‘ulotga tayyorgarligi tekshiriladi, o‘quvchilar ehtiyojlari aniqlanadi.


II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash. O‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi.

O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mavzuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

III. Yangi mavzu bayoni.

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Ezgulik nima? «Ezgu maqsad, ezgu tilak, ezgu niyat» tushunchalari qayerda va qachon ishlatiladi?
2. Tug‘ilgan kuningizda barcha sizga yaxshi niyatlar bildirdi. Siz ulardan mamnun bo‘lib, «Ezgu tilaklaringiz uchun rahmat», deb javob berdingiz. Ezgu tilak nima?
3. Ezgu tilak va ezgu maqsad o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?
4. Olimjon kelajakda shifokor, Zarnigor – o‘qituvchi, Sohibjon esa tadbirkor bo‘lmoqchi. Ularning maqsadlarini ezgu maqsad deyish mumkinmi?
5. Siz kim bo‘lmoqchisiz? Kelajakdagi kasbingiz ezgulikka qan chalik xizmat qiladi?



MAQSADGA NIMA OLIB BORADI?

Aql-zakovatda tengsiz ustoz Zohid kamonbozlikda ham beqiyos edi. Bir kuni tongda u mahoratiga bepisandlik bilan qaraydigan shogirdi hamrohligida uyi atrof ni o‘rab olgan quyuq o‘rmonzorda kamondan o‘q uzish mashqlarini bajarar edi.

Bunday mashg‘ulotlarga bir necha marotaba guvoh bo‘lgan izdoshi esa o‘zini mashqlarga befarq dek tutardi. Ustoz eman daraxti ostida o‘sgan yovvoyi atirgul g‘unchasini uzib, daraxtning baland shoxiga ildi-da, undan yuz qadam uzoqlashdi. Uning harakatlaridan taajjubga tushgan shogird jarayonni diqqat bilan kuzata boshladi. Ustoz sadog‘idan o‘q olib, noyob yog‘ochdan tayyorlangan yoyiga ildi. Shogirdiga ro‘molcha uzatib, «ko‘zimni bog‘la» dedi, keyin:

– Mardlik timsoli bo‘lgan kamonbozlik bilan shu g‘ullarga nimni ko‘p ko‘rgansan, to‘g‘rimi? – dedi.

– Har kuni va yana atirgul g‘unchasini 300 qadam uzoqlikdan turib urishingizni ham, – dedi shogird.

Ustoz qaddini rosladi, oyoqlarini qulay joylashtirib, o‘ng yelkasi bilan orqaroq tisarildi, kamonni tarang tortib, o‘qni nishonga to‘g‘riladi. Vaziyatdan karaxt bo‘lgan shogird vizillab uchgan o‘qning ovozidan sergak tortdi. O‘q gul tugul daraxtga ham tegmaganini ko‘rgach, miyig‘ida kuldi.

– Xo‘sh, o‘qni tekkiza oldimmi? – so‘radi ustoz bog‘langan ko‘zlaridan ro‘molchani yechar ekan.

– Yo‘q! Taassufki, o‘q tamomila boshqa yoqqa qarab uchdi.

Men inson idrokining qudrati bilan bog‘liq mo‘jizaviy hodisaga guvoh bo‘lamanmi, deb o‘ylab turgan edim. Afsus!.. – dedi shogird.

ORZULAR IZDOSHI

«Taqdir go‘zal orzulariga ergashganlarni yorqin tole bilan siylaydi», – degan fikrni menga do‘stim Monti Roberts singdirgan. 15 yoshli o‘g‘lim bilan do‘stim Montining fermasiga mehmonga bordik. O‘g‘lim do‘stimning eng ko‘rkam to‘riq samanini minaman, deb xarxasha qildi.

Atlanta – shu yaqin-atrofdagi eng chopqir saman. Do‘stim uni qan chalar avaylashi, parvarishla shini bilganim uchun ham o‘g‘limning istagiga qar shilik qildim.

– Qo‘ysang-chi, Jek! Qo‘yaver, o‘g‘ling shu to‘riqda chopo qolsin. Yigitlar ko‘z-quloq bo‘lib turishadi, – dedi xotirjamlik bilan do‘stim.

O‘g‘limning Atlantada china kam chavandozlardek savlat to‘kib o‘tirishini ko‘rib, g‘ururga to‘ldim.

Monti ikkalamiz uni maroq bilan tomosha qilar ekanmiz, do‘stim menga yuzlandi:

– Bilasanmi, Jek, men nega o‘g‘lingni shu otda chopishga bo‘lgan xohishini qo‘llab-quvvatladim?

Men bir vaqtlar otda chopishni o‘rgatadigan oddiygina murabbiyning o‘g‘li edim. Yuqori sinfda o‘qiyotganimda amakim mendan kelajak rejalarim haqida so‘radi. Men ikki yuz gektarli ferma maydoni, son-sanoqsiz otlar parvarishlanadigan binolar, ulkan otchopar, yilqichilik xo‘jaligini boshqarish orzum haqida aytib berdim.

– Monti, orzular o‘z yo‘liga. Lekin hayot aniq rejalar ustiga qurilishi kerak. Endi yosh bola emassan, xomxayol bo‘lma. Aks holda men bu orzungni qadrlar edim, – deya e‘tiroz bildirdi amakim.

Uzoq o‘ylab, otam bilan maslahatlashdim. «O‘z orzularingni omon saqlab qolishga haqqing bor, o‘g‘lim!» – dalda berdilar dadam. Shu sabab maqsadim sari intildim, – dedi u.

Monti bu hikoyani xotirjamlik, ichki bir entikish, bolalikka xos beg‘uborlik bilan so‘zlab berar ekan, men ko‘z o‘ngimdagi uning orzulari ro‘yobiga havas bilan boqardim.

– Oldingi yozda o‘sha amakim fermamda mehmon bo‘ldi.

U men bilan xayrlashar ekan: «Monti, bu gaplarni senga aytish vaqti keldi. Men o‘shanda nohaq ekanman, inson doim orzulari tomon intilsa, shundagina o‘z orzulariga albatta erishar ekan», – dedi va qoyil degandek yelkamga qoqib qo‘ydi, – deya hikoyasini tugatdi do‘stim.

J. Kenfi ld

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash. O‘tilgan mavzu mustahkamlanadi

1. Hikoyani o‘qib, qanday xulosaga keldingiz?
2. Montidagi qaysi fazilatlar orzusini amalga oshirishga yordam berdi?
3. Nima deb o‘ylaysiz, Monti nima uchun amakisining e‘tirozidan so‘ng ham o‘z orzusi tomon intildi?

V. O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Mashg‘ulotni yakunlash.

O‘quvchilar mashg‘ulotdagi ishtirokiga ko‘ra baholanadi. Rag‘bat kartochkalari orqali baholanadi. Guruhlar ham umumiy rag‘batlantirilib boriladi.

VI. Uyga vazifa Uyga vazifa bugungi mavzuni o‘qib kelish, qayta hikoyalashga tayyorlanish, xulasa chiqarish.

1. Quyidagi savollarni muhokama qiling:

- Siz hozir qanday maqsad bilan yashayapsiz?
- Sizning vaqtingiz rejalimi?
- Orzungizga erishish uchun nima qilishingiz kerak?

2. Nuqtalar o‘rniga mos gaplarni qo‘ying. Fikringizni asoslang.

Yana nimalarni qo‘shimcha qilar edingiz?

«Hayotning mazmuni bu – ...»

Hayotiy qadriyatlar. Bilim va hunar egallash. Ota-onamning orzulari ushalishi. Oldimga qo‘yilgan maqsadga erishishim. Tinchlik va xotirjamlik.

«Muvaffaqiyatga erishishimizda ... salbiy ta‘sir ko‘rsatadi».

Dangasalik, yalqovlik, sabrsizlik, bilim sizlik, isrofgarchilik.

Mavzu: Umr-umid-sinov-imkoniyat

Maqsad: Ta’limiy: O‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish. Yuksak insoniy fazilatlar mohiyatini anglatish, ularga ongli munosabatda bo‘lish, hamma millat vakillariga yaxshi munosabatda bo‘lish bilimni shakllantirish

TK2: axborot manbalari (televizor, telefon)dan to‘g‘ri foydalana olish

FK1 suhbatdoshni tinglash, sukut saqlash va o‘z fikrini to‘g‘ri bayon qilish ;

Tarbiyaviy: Odob-inson ko‘rki va ma’naviy boyligi ekanligini va mutafakkir ma’rifatparvarlar asarlaridagi hikmat, rivoyat va o‘g‘itlarini, milliy sharqona odob-axloq qoidalari, fazilatlarini, o‘zbekona urf-odat va an‘analarining milliy xususiyatlarni farqlash va amalga oshirish usullarini o‘rgatish.

TK4: Davlat ramzlariga hurmat va ehtirom ko‘rsatish;

Rivojlantiruvchi: O‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish, matn bilan ishlash orqali fikrlash qobiliyatlarini, og‘zaki nutqini o‘stirish.

FK1: O‘zbekistonda yashayotgan millatlar va elatlar haqida ma’lumot bera olish

Mashg‘ulot turi: Yangi bilim beruvchi

Mashg‘ulot usuli: Suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

Mashg‘ulot jihozi: Mashg‘ulotlik, taxta, bo‘r, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Mashg‘ulotning borishi.

I. Tashkiliy qism: Salomlashish, navbatchi axboroti, sinf va o‘quvchilarning mashg‘ulotga tayyorgarligi tekshiriladi, o‘quvchilar ehtiyojlari aniqlanadi.

II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash. O‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mavzuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

III. Yangi mavzu bayoni.

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Zoye o‘tkazilgan vaqt degan tushunchani izohlashga harakat qiling. Siz hayotingizda: «Vaqtning zoye o‘tkazdim, imkoniyatdan noto‘g‘ri foydalandim», degan holatga tushganmisiz?

2. Soatlab kompyuter o‘yinlari bilan band bo‘lib, uy vazifalarini bajarishga vaqtingiz yetmasdan, yomon baho olgan vaqtlaringiz bo‘lganmi?

3. Nima uchun kattalar insonda muammo tug‘ilsa, «Bu bir sinov, matonatli bo‘ling, yengasiz, oldinda hali imkoniyatlaringiz ko‘p», deb ayti shadi?

4. Imkoniyat o‘zi nima? Sizda qanday imkoniyatlar bor?

5. Hayotingizdagi eng katta yutuq nima bolgan va u sizga qanday imkoniyatlar bergan?

UMR – OQAR DARYO

To‘lqinlari shosha-pisha oqayotgan daryo bo‘yida varrak uchira yotgan bolakay yonidagi bobosiga savol berdi:

– Bobojon, nega umrni oqar daryo deyishadi?

– Daryoning shosha-pisha suvi – vaqtga, katta xarsanglar – umrimizdagi katta maqsadlarga, mayda toshlar esa – ko‘z ilg‘amas kichik maqsadlarga o‘xshaydi. Hayotda ham katta maqsadlarga kichik maqsadlar orqali yetamiz, – deya javob berdi bobo.

– Bobojon, nega vaqt mashg‘ulotda yoki biror ish qilayotganimda sekin, do‘stlarim bilan o‘ynaganimda esa juda tez o‘tadi? – dedi bolakay.

– Ko‘ryapsanmi, – dedi bobo o‘ychanlik bilan, – shamol bo‘lmasa, sening varraging samoga, ya’ni yuqoriga ko‘tarila olmagani kabi, insonni ham maqsadlariga mashaqqat bilan bosgan yo‘li yetkazadi.

Ijodiy faoliyat

«Uddalay olmayman» tushunchasi miyani qulfaydi. Shu tobda: «Buni qanday amalga oshirsam bo‘ladi?» – deb aytish, aksincha, ishlashga majbur etadi.



1. «Uddalay olmayman» tushunchasi miyani qanday qulfashi mumkin? Quyidagi mashqni bajaring:

- Mening
- Men bu ishni
- Muammolarni
- Oldimga qo‘ygan maqsadim
- Qiyinchiliklar



PO‘LAT IRODA SOHIBI

Pul topish uchun velosipedda do‘konlarga guruch tarqatib yurgan o‘smir bir kuni do‘stlariga:

«Men Koreyada avtomobil ishlab chiqaraman», dedi. Do‘stlari uning ustidan kulib, «Kunlik noningni topib yeb tur», deyishdi.

Katta orzular o‘smirni o‘ziga chorladi. U guruch tashish bilan birga, turli joylarda yuk tashuvchi, avtomexanik, oddiy ishchi bolib ishladi. Kundalik topgan mablag‘laridan chegirib, 1939-yilda kichik avtomobil ustaxonasini ochdi. Bu bilan u to‘xtab qolmadi.

Ustaxonani kengaytirdi. Koreyada birinchi bo‘lib «Poni» nomli avtomobilni ishlab chiqardi. Keyinchalik bu avtomobil «Hyundai Motors» avto mobilini ishlab chiqarish uchun asos bo‘ldi. 1946-yilda bu ustaxona «Hyundai» (zamonaviy) nomi bilan ishlay boshladi.

1915-yilda Koreya ning chekka qishlog‘ida tug‘ilgan Chung Ju Yung «Po‘lat iroda sohibi» degan nom oldi. Uni Asan deb ham cha qirishardi. Asanning sa‘y-harakati bilan bugun «Hyundai Group» jahonda eng yirik kemasozlik, avtomobilsozlik kabi o‘ndan ziyod soha larda yetakchi sanaladi.



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash. O‘tilgan mavzu mustahkamlanadi

1. Asan orzusiga erishishi uchun o‘zida qanday fazilatlarni shakl lantirishga harakat qilgan?

2. Siz orzungizga erishish uchun qanday fazilatlarga ega bo‘li shingiz kerak?

V. O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Mashg‘ulotni yakunlash.

O‘quvchilar mashg‘ulotdagi ishtirokiga ko‘ra baholanadi. Rag‘bat kartochkalari orqali baholanadi. Guruhlar ham umumiy rag‘batlantirilib boriladi.

VI. Uyga vazifa Uyga vazifa bugungi mavzuni o‘qib kelish, qayta hikoyalashga tayyorlanish, xulasa chiqarish.

1. Abu Mansur Moturidiy bildirgan fikrni tahlil qiling: «O‘tgan hayotingni o‘z mual liming deb bil».

2. Bilamizki, bog‘bon yosh, yangi niholni alohida parvarishlab, uni barcha zaruriy ozuqa va minerallar bilan vaqtida oziqlanti radi. Shundagina bog‘bon mehnati ning hosilini oladi. Siz o‘zingizni yosh nihol deb tasavvur qiling. Kelajakda o‘z maqsadlaringizga erishishingiz uchun sizga qanday «ozuqa va minerallar» kerak, deb o‘ylaysiz? Sanang va daftaringizga yozing: *vaqtini qadrlash, sabrli bo‘lish, ...*

Maktab MMIBDO‘ _____ sana _____ 20__yil

veb-saytimiz: Zokirjon.com
Hujjat Word variantda beriladi.

Zokirjon Admin bilan

90-530-00-68 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz yoki nza4567 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi. Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

Tarbiya fanidan yuqori sinf o'quvchilarga 34 soatli to'garakni to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.

Narxi: 15 ming so'm

Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon

**Maktablar
uchun
hujjatlar**



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.